

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyatining kredit ta‘minotlari bilan ishlash bo‘yicha

TARTIB

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1 Mazkur Tartib quyidagilarga muvofiq ishlab chiqilgan:

- O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ipoteka to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3620-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.09.2025 yildagi 613-son “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga olish huquqini kreditlar ta‘minoti sifatida garovga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida”gi nizom;
- Bankning “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” Aksiyadorlik jamiyati balansiga qarzdorlikni so‘ndirish hisobiga qabul qilingan mol-mulkini sotish tartibi to‘g‘risida”gi vaqtinchalik nizom;
- Kreditlar bo‘yicha qarzdorlikni undirishda mol-mulkni “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki AJ balansiga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizom;
- “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” Aksiyadorlik jamiyatida “Kreditlarni monitoring qilish va undirishning texnik tartibi”;
- O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me‘yoriy hujjatlari, "O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJning (keyingi

o‘rinlarda - Bank) Ustavi, Kredit siyosati va ichki me‘yoriy hujjatlari bilan belgilanadi.

1.2. “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati kreditlarini garov kredit ta‘minoti bilan ishlash tartibi (keyingi o‘rinlarda - Tartib) Bankning kreditlarni ta‘minlash va kredit tavakkalchiligi bilan bog‘liq yo‘qotishlarni minimallashtirish ishlarni tashkil etish bo‘yicha asosiy talablarini tartibga soladi.

1.3. Tartib Bankning kredit ta‘minoti bo‘yicha talablarini bajarilishini, shuningdek Qarz oluvchining Bank oldidagi kredit qarzining to‘lanmagan qismidan oshadigan qismida kredit ta‘minot miqdorini kamaytirishga bo‘lgan huquqlariga rioya etilishini ta‘minlaydigan Bankning tarkibiy bo‘linmalari xodimlari uchun mo‘ljallangan.

1.4. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Bank (Kreditor) – “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” Aksiyadorlik jamiyati, shu jumladan uning Bank xizmatlari markazlari (BXM) va Bank xizmatlari ofislari (BXO).

Qarzdor - qarz oluvchi, kafil, garovga qo‘yuvchi, kafil va kredit bo‘yicha qarzni uzish majburiyatini o‘z zimmasiga olgan boshqa shaxs.

Qarz oluvchi - Bank mablag‘larini qarzga (kreditga) olgan va ularni shartnomada kelishilgan shartlarda belgilangan muddatda qaytarish majburiyatini olgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Garov - Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash manbalaridan biri.

Garov mulki - Qarzdorning (garovga qo‘yuvchining) o‘z moliyaviy majburiyatlarini bajarish kafolati sifatida Bankka (garovga oluvchiga) taqdim etadigan mulki (ko‘chmas mulk, qimmatli qog‘ozlar, transport, uskunalar, omonat, tovar zaxiralari, mulkiy huquqlar). Agar Qarzdor o‘z majburiyatlarini bajarmasa, Bank qarzni qoplash uchun ushbu mulkni sotish huquqini oladi.

Garov reyestri - majburiyatlar bajarilishining kredit ta‘minoti sifatida taqdim etilgan qarzdorlarning mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning huquqlari to‘g‘risidagi, shuningdek qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanish bo‘yicha huquqlariga qonunga muvofiq qo‘yilgan cheklovlar hamda qarzdorning o‘z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta‘minlash bilan bog‘liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni o‘z ichiga olgan ma‘lumotlarning yagona axborot bazasi.

Bankning kollegial organlari - Muammoli kreditlar bilan ishlash qo‘mitasi, Kredit qo‘mitasi, Aktiv va Passivlarni boshqarish qo‘mitasi, Bank Boshqaruvi, Bank

Kuzatuv kengashi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bankning mintaqaviy bo'linmalarining kollegial organlari.

Kredit - barcha turdagi kreditlar, faktoring va forfeyting operatsiyalari, moliyaviy lizing, kafolatlar, bo'lib-bo'lib to'lanadigan akkreditivlar, ramburs moliyalashtirish, overdraft kreditlari, plastik kartalar bo'yicha kreditlar, kredit kartalari - mikroqarzarlar va kredit tavakkalchiligi bo'lgan boshqa operatsiyalar.

Kredit qarzi - bu Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar Bankka to'lashi shart bo'lgan pul mablag'lari summasi bo'lib, asosiy qarz, hisoblangan foizlar, komissiyalar va jarimalar / neustoykalar yig'indisidan iborat.

Kredit beruvchi bo'linmalar (jumladan, Loyihalarni moliyalashtirish markazi) - Bankning Mintaqaviy bo'linmalarining kredit bo'linmalari va kreditlarni beruvchi Bank Bosh ofisining kreditlash bo'linmalari.

Kredit ta'minoti - bu Qarz oluvchi to'lov qobiliyatini yo'qotgan taqdirda qarzni qaytarmaslik tavakkalchiligi kamaytirish maqsadida Bankka taqdim etadigan kredit mablag'larini qaytarishning qo'shimcha manbasidir.

Mas'ul bo'linmalar - garov kredit ta'minotining mavjudligi va yetarliligini qabul qilish, monitoring va nazorat qilishni ta'minlaydigan Bank bo'linmalari (Kredit bo'linmalari, Kreditlarni monitoring qilish va dastlabki undirish departamenti, Xatarlarni boshqarish departamenti, Garov xizmati).

Muddati o'tgan qarz ("muddat o'tkazib yuborilgan") - qarzdor tomonidan bank oldidagi asosiy qarz va/yoki foizlar, shuningdek kredit shartnomasi yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar bo'yicha bajarilmagan (zarur darajada bajarilmagan) majburiyatlar hajmi.

Bankning mintaqaviy bo'linmasi-Qoraqalpog'iston Respublikasi/viloyatlar /Toshkent shahar Bosh boshqarmasi, Mirobod bo'limi, Bank xizmatlari markazi (BXM), Bank xizmatlari ofisi (BXO) -Bankning O'zbekiston Respublikasi hududidagi yuridik shaxs bo'lmagan alohida bo'linmasi bo'lib, o'z faoliyatini Bank tomonidan o'ziga yuklangan vakolatlar doirasida va uning nomidan amalga oshiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan atamalar va ta'riflar faqat ushbu Tartib uchun qo'llaniladi.

II. KREDIT TA'MINOT TURLARI

2.1 Kreditni to'lamaslik tavakkalchiligini minimallashtirish maqsadida Bankda kreditlash (ishonchli kreditdan tashqari) Qarz oluvchi tomonidan Bank talablarini qondiradigan kredit ta'minotni taqdim etish sharti bajarilganda amalga oshiriladi.

2.2 Bank tomonidan qabul qilinishi mumkin bo‘lgan barcha kredit ta’minot turlari shartli ravishda asosiy va boshqa turlarga bo‘linadi.

2.3 Kredit ta’minot majburiyatlarini tanlashda asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat: kredit ta’minotning aniq shakli (garov, kafillik va boshqalar), kredit ta’minotning haqiqiy qiymati (bozor qiymati), qarzni to‘lash uchun aktivlarning likvidligi (tez va sezilarli yo‘qotishlarsiz amalga oshirish qobiliyati), kredit ta’minotning huquqiy tozaligi (amalga oshirish uchun yuridik to‘siqlarga ega bo‘lmasligi kerak) va ekvivalentlik (kredit ta’minot qiymati uni amalga oshirishda Bankning potentsial yo‘qotishlariga mos kelishi kerak).

2.4 Bankning Kredit siyosatiga muvofiq quyidagilar asosiy kredit ta’minot sifatida qabul qilinishi mumkin:

a) O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolati, xalqaro reyting kompaniyalarining reytingi investitsiya reytingidan past bo‘lmagan banklar yoki sug‘urta kompaniyalarining kafolati;

b) mol-mulk va mulkiy huquqlar garovi, bunda mol-mulk va mulkiy huquqlar garovi Bank tomonidan Kredit siyosatida, Bankning “Yuridik shaxslar va yuridik shaxs tashkil etmagan tadbirkorlik sub’yektlarini kreditlash to‘g‘risida”gi Nizomida va boshqa kreditlash bilan bog‘liq ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda qabul qilinishi kerak;

v) hisobvaraqlardagi yoki kelajakda Bank hisobvaraqlariga kelib tushadigan erkin konvertatsiya qilinadigan va/yoki milliy valyutadagi pul mablag‘larini olish huquqlarini garovga qo‘yish;

g) qarz oluvchining shartnoma asosida garov depozitiga qabul qilingan pul mablag‘lari yuzasidan muddatli/jamg‘arma depozit hisobvaraqlarida turgan pul mablag‘larini olish huquqlarini garovga qo‘yish. Shu bilan birga, kredit bo‘yicha barcha majburiyatlar bajarilgunga qadar muddatli/jamg‘arma depozit hisobvaraqlaridan mablag‘larni yechib olishga yo‘l qo‘yilmaydi, bu shartnomada ko‘rsatilishi kerak;

d) kreditlashning butun davri uchun to‘lov qobiliyati va kafilning moliyaviy ishonchliligi tekshirilgan uchinchi shaxslarning kafilligi. Bunda, kafil - yuridik shaxsning Banklar oldidagi majburiyatlari summasi (qabul qilinadigan kafillikni hisobga olgan holda) kafil joriy aktivlarining 80 foizidan oshmasligi kerak (majburiyatlarni chegirgan holda). Xususiyy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kreditlari bo‘yicha yoxud normativ hujjatlarda yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining alohida topshiriqlarida belgilangan hollarda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining kafilliklari;

e) O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda, ko‘rsatilgan sug‘urta turini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda litsenziyaga ega bo‘lgan sug‘urta kompaniyalaridan kreditni qaytmaslik tavakkalchilgini sug‘urta

qilish bo'yicha sug'urta polislari faqat Bank tomonidan tasdiqlangan kreditni qaytarmaslikni sug'urta qilish bo'yicha namunaviy shartnoma shaklida. Bunda, sug'urta kompaniyasi bilan tuzilgan Bosh kelishuv bo'yicha e-polis (elektron polis) xizmatlaridan foydalanishga yo'l qo'yiladi;

j) Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining kafilligi.

z) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa kredit ta'minot turlari, shu jumladan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari, debitorlik qarzlari bo'yicha mablag'larni olish huquqlarini garovga qo'yish, eksport kontrakti bo'yicha qoplangan tasdiqlangan akkreditiv ko'rinishidagi garov.

2.5 Kredit tavakkalchiligini kamaytirish uchun qo'shimcha kredit ta'minot sifatida (kreditlash bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlarda belgilangan me'yorlardan ortiqcha) mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari (hokimliklar), uchinchi shaxslarning kafilligi (kafilning moliyaviy holati muvofiqligini talab qilmagan holda), shuningdek kredit hisobiga sotib olinadigan mol-mulklar va boshqalar qabul qilinishi mumkin.

2.6 Berilgan kreditlar bo'yicha Bank tomonidan qabul qilinadigan kredit ta'minoti Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan talablarga javob berishi kerak. Agar bankning talabiga ko'ra kredit ta'minoti sifatida qimmatli qog'ozlar, bank omonatlari (depozitlari), kafolatlar yoki kafilliklar qabul qilingan bo'lsa, bunday kredit ta'minot turlari muddati, kreditni to'lash muddatidan kam bo'lishi mumkin emas. Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, taraflarning shartnomasi va (yoki) kelishuvida garov narsasini amalda realizatsiya qilish yoki kafolat (kafillik) shartlarini bajarish muddatlari bo'yicha cheklovlar bo'lmasligi kerak.

2.7 Kredit asosiy ta'minoti miqdori, agar qonun hujjatlarida yoki Bankning Xalqaro moliya institutlari yoki xorijiy banklar bilan tuzgan qarz bitimlarida, shuningdek Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, qarz qoldig'i miqdorining kamida 125 foizini tashkil etishi kerak.

2.8 Kredit berishdan oldin Bank potensial qarzdorlarni (garovga qo'yuvchilar, kafolat beruvchilar, kafillar va ularning boshqaruv organlari) mulkni garovga qo'yish, kafolat va kafillik berish bo'yicha tegishli vakolatlarga ega ekanligini tekshiradi.

2.9 Kredit ta'minotni rasmiylashtirish bo'yicha har qanday harakatlar (shartnoma tuzish, garovga qo'yilayotgan mol-mulkni sug'urta qilish, notarial tasdiqlash va ushbu Tartibda nazarda tutilgan boshqa harakatlar) Bank tomonidan kredit mablag'larini berish boshlangunga qadar (birlamchi kreditlar bo'yicha) Qarz oluvchi tomonidan bajarilishi kerak.

2.10 Bank tomonidan kreditni ta'minlash uchun qabul qilingan mol-mulk garovi, qimmatli qog'ozlar, kafillik, sug'urta polisi bo'yicha hujjatlar hisobi Bankda

94500 - "Garov kredit ta'minoti sifatida qimmatli qog'ozlar, mol-mulk va mulkiy huquqlar (talablar)" balansdan tashqari hisobvaraqlarida kredit ta'minoti sifatida yuritiladi.

2.11 Bank kreditlarni ta'minlash bo'yicha shartnomalar/hujjatlarni hisobga olish va saqlash tartibini ichki me'yoriy hujjatlarda mustaqil ravishda belgilaydi.

III. MOL-MULK GAROVI

3.1 Bankning rivojlanish strategiyasi va Kredit siyosatiga muvofiq, Bank garov portfelini shakllantirishda maqsadli ustuvorliklarni va garov kredit ta'minoti bilan ishlash tartibini belgilaydi. Bank tomonidan kredit ta'minot sifatida qabul qilingan mulk amaldagi qonunchilik doirasida Bank va mulk egasi o'rtasida ipoteka (binolar, inshootlar va yer) yoki garov (kredit ta'minot sifatida qabul qilishga ruxsat etilgan boshqa turdagi mulklar) shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

3.2 Kredit ta'minoti sifatida ko'chmas mulk, ishlab chiqarish va boshqa uskunalar, shuningdek transport vositalari taqdim etilgan taqdirda, mol-mulkning garov qiymati ma'naviy va jismoniy eskirish va mumkin bo'lgan qadrsizlanish tavakkalchiligini hisobga olgan holda Bankning amaldagi Kredit siyosatida belgilangan "Garov qiymatini aniqlash tamoyillari"ga muvofiq baholanishi kerak.

3.3 Pul mablag'larini kredit ta'minotiga qabul qilish uchun Bank va Qarz oluvchi/ Garovga qo'yuvchi garov shartnomasini tuzishlari kerak, uning shartlariga ko'ra omonat (depozit) kredit ta'minoti sifatida maxsus hisobvaraqa joylashtiriladi, kredit shartnomasi esa qarz oluvchi kreditni qaytarmagan yoki o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda Bank tomonidan ushbu omonat (depozit) mablag'laridan akseptsiz foydalanish imkoniyatini nazarda tutishi kerak. Bunda bank kreditni qaytarish muddati kelgunga qadar maxsus hisobvaraqdagi depozitdan pul mablag'lari olinishini istisno etuvchi zarur choralarni ko'rishi va nazorat o'rnatishi shart.

3.4 Bank qarz oluvchining kredit berish paytida Bankdagi muddatli/jamg'arma omonatida (depozitida) bo'lgan pul mablag'larini kredit ta'minoti sifatida qabul qilishi mumkin, bunda kredit qaytarilmagan yoki qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda omonat (depozit) mablag'laridan Bank tomonidan so'zsiz foydalanish imkoniyatini nazarda tutuvchi asosiy depozit shartnomasiga Bitim tuzilishi shart. Bunda muddatli/jamg'arma omonatiga (depozitiga) qo'yilgan mablag'lar muddati kredit muddatidan kam bo'lmasligi va bank kreditni qaytarish muddati kelgunga qadar muddatli/jamg'arma omonatida (depozitida) bo'lgan pul mablag'larini olinishini istisno etuvchi zarur choralarni ko'rishi va nazorat o'rnatishi shart.

3.5 Bunda, Qarz oluvchi omonatda (depozitda) bo'lgan va kredit bo'yicha garov hisoblangan mablag'larni kredit shartnomasining amal qilish muddati davomida istalgan vaqtda, omonatning (depozitning) amal qilish muddatidan qat'i nazar, omonatni (depozitni) qaytarish mo'ljallanayotgan sanadan kamida 1 oy oldin Bankni xabardor qilgan holda kreditni so'ndirishga yo'naltirishga haqli.

3.6 Garovga qo'yilgan mol-mulk quyidagi tavakkalchiliklar guruhidan: tabiiy ofatlardan, uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan, shuningdek uning to'liq yoki qisman yo'qolishi (nobud bo'lishi), shikastlanishi yoki tasodifan buzilishi, o'g'irlanishi, barvaqt eskirishi, olib qochilishi, yo'l-transport hodisalari va garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi, yong'in natijasida yonib nobud bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa tavakkalchiliklardan sug'urtalanishi kerak. Garovga qo'yilayotgan mol-mulk bo'yicha sug'urta shartnomasi bo'yicha naf oluvchi Bank bo'lishi kerak.

3.7 Sug'urta shartnomasi tuzilishi va sug'urta mukofoti kreditni qaytarish muddatidan kam bo'lmagan muddatga to'lanishi kerak. Ko'rsatib o'tilgan qoidalar yirik investitsiya kreditlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining qarorlari bo'yicha beriladigan, ular bo'yicha boshqacha tartibda ko'rsatilgan kreditlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3.8 Sug'urta kompaniyalari bilan tuziladigan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlarini kredit hisobidan to'lashga yo'l qo'yiladi. Bunda kreditning ko'rsatilgan maqsadi Qarz oluvchining kredit olish to'g'risidagi arizasida majburiy tartibda aks ettirilishi, Qarz oluvchilar bilan tuziladigan kredit shartnomalarida qayd etilishi kerak.

3.9 Garov narsasi O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi, "Garov to'g'risida"gi, "Ipoteka to'g'risida"gi qonunlari va boshqa normativ hujjatlarga hamda ichki normativ hujjatlar talablariga muvofiq majburiy tartibda baholanishi lozim. Bunda mol-mulkning Qarz oluvchining moliyaviy hisobotida aks ettirilgan yoki uchinchi tomon, shu jumladan mustaqil baholovchi tomonidan aniqlangan qiymatidan qat'iy nazar, garov narsasining yakuniy narxi garov (ipoteka) shartnomasining o'zida qayd etiladi.

3.10 Garovga qo'yilgan mulk quyidagi talablarga javob berishi kerak:

a) qonuniy asoslarda garovga qo'yuvchiga mulk huquqi asosida tegishli bo'lishi;

b) boshqa bankda garovda bo'lmashligi (Prezident va/yoki Hukumatning alohida farmonlari/qarorlari bo'yicha beriladigan kreditlar bundan mustasno);

v) likvid bo'lishi, ya'ni pul mablag'lariga aylantirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

g) o'z qiymatini yo'qotmagan holda uzoq muddat saqlash qobiliyatiga ega bo'lishi (kamida kreditlash muddatiga);

d) mol-mulkni garovga qo'yish uchun qonun hujjatlariga va garovga qo'yuvchining ta'sis hujjatlariga muvofiq davlat organlarining ham, barcha mulkdorlarning zarur roziliklari va ruxsatlari olingan bo'lishi kerak.

e) mol-mulk qiymati qayta baholanishi mumkin. Mavjud qarzdorlikka nisbatan kredit ta'minot miqdorining yetishmasligi holatlari aniqlanganda, Bankning tegishli bo'linmasi xodimlari yetishmayotgan qismda qo'shimcha likvidli kredit ta'minot taqdim etilishini qarzdor/garovga qo'yuvchidan talab qilishlari kerak. Bank tomonidan bunday harakatlarni amalga oshirish imkoniyati Kredit shartnomasida belgilangan.

j) O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ipoteka shartnomasi notarial tasdiqlanishi shart, biroq, birlamchi bozordan sotib olingan turar-joy va transport vositasi bundan mustasno. Garov shartnomasi esa shartnoma taraflarining talabiga ko'ra notarial tasdiqlanishi mumkin. Bundan tashqari, ipoteka shartnomasi Ko'chmas mulk kadastri (noturar joylar uchun) yoki Texnik inventarizatsiya byurosi (turar joylar uchun) organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi shart.

3.11 Garovga (ipotekaga) berilayotgan mol-mulk qiymatini baholash "Baholash faoliyati to'g'risida"gi, "Garov to'g'risida"gi, "Ipoteka to'g'risida"gi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga, Mol-mulkni baholash milliy standartlari va ichki me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

3.12 Garovga qabul qilinayotgan mol-mulkning qiymatini baholash uni realizatsiya qilish zarur bo'lgan taqdirda ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni aks ettirish maqsadida diskontlanishi lozim bo'lgan bozor qiymatiga asoslanishi kerak. Garovga qabul qilinadigan mol-mulk qiymatining eng yuqori darajasi uning har xil turlari bo'yicha (diskontlashni hisobga olgan holda) Kredit siyosati bilan belgilanadi. Bunda jismoniy shaxs tomonidan kredit hisobiga sotib olinayotgan va garovga berilayotgan avtomobil qiymatini diskontlash amalga oshirilmasligi mumkin.

3.13 Baholash obyektining bozor qiymati milliy valyutada ifodalanishi, yozma shaklda bayon etilishi va foydalanuvchilarga uni aniqlash uchun asoslar haqida tasavvur berish uchun yetarli tavsiflarga ega bo'lishi kerak. Bunda Bank mustaqil baholovchi tashkilotning baholash sanasi 12 oydan oshmagan garov mulkining bozor qiymati to'g'risidagi hisobotini qabul qilishi mumkin.

3.14 Ko'chmas mulkni birlamchi bozordan sotib olishda yoki auksion orqali aniq belgilangan narxda ipoteka krediti rasmiylashtirilgan taqdirda, ko'chmas mulkni baholash talab etilmaydi.

3.15 Garovga qabul qilinayotgan mol-mulkning baholash qiymatining ishonchliligiga shubha tug'ilgan hollarda, mustaqil baholovchi kompaniyaning baholash to'g'risidagi hisobotini ekspertizadan o'tkazish va/yoki Bankning

kreditlarni garovga qo'yish bo'yicha ichki talablariga javob beradigan qo'shimcha kredit ta'minot talab qilinishi mumkin.

3.16 Garovga qabul qilinayotgan mol-mulkning aniqlashtirilgan bahosi dastlabki bahodan farq qilgan taqdirda, bunday baholash hisoboti ekspertiza qilinadi.

3.17 Qarz oluvchi tomonidan kreditni qaytarish bo'yicha majburiyat bajarilmagan taqdirda, Bank O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi va "Ipoteka to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq undiruvni garov narsasiga qaratish huquqiga ega.

3.18 Undiruv qaratilgan garovga qo'yilgan mol-mulkni sotish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq savdolarida sotish yoki to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar orqali amalga oshiriladi.

3.19 Qarzni so'ndirish uchun Bank balansiga qabul qilingan garovga qo'yilgan mol-mulkni to'g'ridan to'g'ri muzokaralar orqali sotish kreditga berish, lizing, ijaraga berish, bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotish yoki qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

3.20 Agar Garovga qo'yuvchi Garovga oluvchiga o'z huquqlarini amalga oshirishda to'sqinlik qilsa va/yoki Garovga oluvchining garov narsasini saqlash choralari ko'rish bo'yicha talablarini bajarmasa, Bank O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 282-moddasiga muvofiq Garovga qo'yuvchidan asosiy majburiyatni muddatidan oldin bajarishni talab qilishga haqli.

3.21 Agar garovga qo'yilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan mablag'lar Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlarini qoplash uchun yetarli bo'lmasa, Bank qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilgan va notarial tasdiqlangan yozma bitim asosida yoki undiruvni qarz oluvchining likvidli mol-mulkiga sud tartibida qaratish yo'li bilan kredit bo'yicha qarzni qarz oluvchining garovga qo'yilmagan boshqa likvidli mol-mulki hisobidan qoplashga haqli.

IV. KAFILLIK

4.1 Uchinchi shaxsning Qarz oluvchi to'lovga qobiliyatsiz bo'lgan taqdirda uning qarzini uzishga roziligi to'g'risidagi kafilligi kredit ta'minoti bo'lib xizmat qilishi mumkin, ular Kreditor, Qarzdor, Kafil va Kafilning banki o'rtasida tuziladigan kafillik shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

4.2 Kafillik shartnomasida Qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasida belgilangan muddatda bajarilmagan taqdirda, Kafil Qarz oluvchining kredit bo'yicha Bank oldidagi majburiyatlarini bajarish majburiyatini o'z zimmasiga olishi ko'rsatiladi.

4.3 Kafil Bank oldida Qarz oluvchining kredit shartnomasidan kelib chiqadigan barcha majburiyatlari, shu jumladan foizlarni to'lash, qarzni undirish bo'yicha sud xarajatlarini va Qarz oluvchining majburiyatni bajarmaganligi yoki

lozim darajada bajarmaganligi natijasida yuzaga kelgan Bankning boshqa zararlarini qoplash bo'yicha, agar kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, javobgardir.

4.4 Kafil to'lovga qobiliyatli va moliyaviy-ishonchli subyekt sifatida yaxshi obro'ga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

4.5 Kafillik shartnomasini kredit ta'minoti sifatida qabul qilishda Bank Kafilning moliyaviy holatini, uning to'lov qobiliyatini tahlil qilishi va ijobiy qaror qabul qilganda kafillik shartnomasini kredit ta'minoti sifatida qabul qilishi kerak.

4.6 Kafilning moliyaviy ahvolini tahlil qilish mas'ul bo'linma tomonidan kredit berishda ham, monitoring jarayonida ham amalga oshirilishi kerak, bu haqda kafillik shartnomasida ko'rsatib o'tiladi.

4.7 Kafilning moliyaviy hisobotining ishonchliligiga Bankda shubha tug'ilganda, Bank taqdim etilgan balans va boshqa hisobotlarning buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiqligi to'g'risida auditorlik xulosasini talab qilishi mumkin. Kafilning moliyaviy holati to'g'risida ishonchli ma'lumot olish uchun (Kafilning tegishli roziligi bilan) Bank Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlar bazasidan foydalanishi mumkin. Shuningdek, Kafilning rahbari kredit qaytarilishini ta'minlash uchun taqdim etilgan kafillik shartnomasini imzolash vakolatiga ega ekanligiga ishonch hosil qilish zarur.

4.8 Kredit siyosatiga muvofiq kafillik shartnomasi kreditning butun summasini va u bo'yicha foizlarni ham, kreditning bir qismini ham qamrab olishi mumkin, bu esa kafillik shartnomasida qayd etiladi. Kafillik bilan kreditning bir qismi ta'minlanganda, kreditning boshqa qismi boshqa likvidli kredit ta'minot bilan ta'minlanishi kerak.

4.9 Kredit siyosatiga muvofiq kreditni ta'minlash uchun uchinchi shaxslarning kreditlar va qarzlari bo'yicha qarzlari mavjud bo'lgan taqdirda, o'z krediti bo'yicha ham, kafillik bo'yicha ham majburiyatlarni bajarish uchun kafilda mablag'lar yetarli bo'lgan taqdirda, ularning kafilligini qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

4.10 To'lov qobiliyati va moliyaviy ishonchliligi tekshirilgan jismoniy shaxsning kafilligi me'yoriy hujjatlar asosida beriladigan kreditlar bo'yicha asosiy kredit ta'minot yoki qo'shichma kredit ta'minotning bir qismi sifatida qabul qilinadi, ularda ko'rsatib o'tilgan shart alohida qayd etiladi. Loyiha tashabbuskorlari, ta'sischilar, qarz oluvchi rahbarlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida kreditni qaytarmaslik xatarini kamaytirish uchun qo'shimcha (ushbu Tartibning 2.8-bandida belgilangan me'yordan ortiq) kredit ta'minot sifatida jismoniy shaxsning kafilligini qabul qilish tavsiya etiladi.

4.11 Kreditni qaytarish muddati kelganda va Qarz oluvchida mablag'lar mavjud bo'lmaganda, Bank Kafilga yozma bildirishnoma yuboradi, uning asosida Kafil o'z topshirig'i bilan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan talab qilinadigan summani Bank tomonidan ko'rsatilgan hisobvaraqqa o'tkazishi kerak

yoki Bank Kafilning hisobvarag'iga to'lov talabnomasini qo'yadi, bu albatta kafillik shartnomasida ko'rsatiladi.

4.12 Kafillik shartnomasida Bank Kafilning hisobvaraqlaridan mablag'larni so'zsiz tartibda hisobdan chiqarish va ularni kreditni qaytarish va u bo'yicha foizlarni to'lashga yo'naltirish huquqlarini nazarda tutish lozim.

4.13 Tegishli funksiyalar yuklatilgan maqsadli jamg'armalarning kafilliklari qonun hujjatlarida belgilangan summada, qolgan summada esa ko'chmas mulk garovi bilan qabul qilinadi. Bunda, uchinchi shaxslarning kafilligi, sug'urta kompaniyalarining kreditni qaytarmaslik tavakkalchiligidan sug'urta polislari, texnologik uskunalari, aylanmadagi tovarlar va qarz oluvchilarning kelgusi tushumlari qabul qilinmaydi.

V. KREDITNI SUG'URTA QILISH

5.1 Bank kredit qaytarilishini ta'minlash sifatida kredit qaytmaslik xatari bo'yicha sug'urta polislari qabul qilishi mumkin.

5.2 Kredit sug'urta polisi bilan ta'minlanganda, sug'urta to'lovi sug'urta kompaniyasining bankdagi hisob raqamiga o'tkazilgandan va sug'urta polisi Bankka taqdim etilgandan hamda kredit qaytmaslik xatari sug'urta shartnomasi va polisi bank manfaatlariga mos holda rasmiylashtirilgandan keyin kredit berilishi mumkin.

5.3 Sug'urta hodisasi yuz berganda (muddati o'tgan qarzдорlik vujudga kelganda) Bank sug'urta kompaniyasiga kreditni qaytarish va foizlarni to'lash bo'yicha majburiyatni bajarish zarurligi to'g'risida xat yuboradi.

5.4 Bank tomonidan sug'urta kompaniyalari tomonidan Qarz oluvchining kreditlari bo'yicha ilgari taqdim etilgan sug'urta shartnomalari (shu jumladan, kreditni to'lamaslik xatarini sug'urtalash shartnomalari bo'yicha) bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaslik holatlari aniqlanganda, bunda Bank naf oluvchi bo'lsa, Muammoli kreditlarni undirish va yuridik muvofiqlashtirish departamenti, Kreditlarni monitoring qilish va dastlabki undirish departamenti hamda Xatarlarni boshqarish departamenti Bankning kredit bo'linmalari bilan birgalikda yuqorida ko'rsatilgan sug'urta kompaniyalaridan Bank oldidagi majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar sug'urta polislari qabul qilishni to'xtatish bo'yicha xatlarni tayyorlaydi va Bankning mintaqaviy bo'linmalariga yuboradi.

VI. ISHONCHLI KREDIT.

6.1 Kreditni kredit ta'minotisiz berish (ishonchli kredit) Bank uchun katta tavakkalchilik bilan birga keladi, shuning uchun uni berish faqat kreditlash davrida to'lov qobiliyati shubha tug'dirmaydigan, benuqson kredit tarixiga ega bo'lgan Qarz oluvchilarga ajratilishi mumkin. Ishonchli kredit Bosh bankning tegishli kollegial organining ijobiy qarori asosida ajratiladi.

6.2 Ishonchli kreditni muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

VII. KREDIT TA'MINOTNI BO'SHATISH, QISMAN KAMAYTIRISH VA ALMASHTIRISH.

7.1 Qarz oluvchi tomonidan kredit to'liq qaytarilganda (Bankning yangi mablag'lar berish yoki kredit liniyasini tiklash bo'yicha majburiyatlari mavjud bo'lmaganda) Garov xizmati 3 bank ish kuni ichida ushbu kredit bo'yicha garovga qo'yilgan mol-mulkni garovdan chiqarishni ta'minlaydi, shuningdek, Bankning garov hisoblangan mol-mulkka bo'lgan huquqlari to'g'risidagi yozuvni Garov reyestridan olib tashlash choralarini ko'radi.

7.2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2018-yil 28-apreldagi 16/18-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risi"dagi Nizomga muvofiq, garov shartnomasida bankning garov ta'minotiga qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda qarz oluvchining kreditning qoplanmagan qismidan ortiq summada garov ta'minoti summasini kamaytirish huquqiga ega.

7.3 Garov kredit ta'minotini almashtirishga faqat Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlarini qoplash uchun garov kredit ta'minotining yetarliligini sinchkovlik bilan tahlil qilgandan so'ng Bankning yozma roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

7.4 Kredit qisman qaytarilgan taqdirda, Qarz oluvchida asosiy qarz, foizlar va komissiyalarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar mavjud emasligi, u tomonidan Bank oldidagi boshqa qabul qilingan majburiyatlar bajarilmaganligi, Bankda esa mijozga yangi mablag'larni taqdim etish bo'yicha majburiyatlar mavjud emasligi faktlari tekshirilgandan so'ng, Qarz oluvchi va/yoki Garovga qo'yuvchining murojaati asosida Bankning mas'ul bo'linmalari kredit ta'minotining bir qismini kamaytirish/almashtirish masalasini ko'rib chiqadi, buning uchun Bankning tegishli kollegial organi qaror qabul qiladi:

- Yuridik shaxslarning va yuridik shaxs tashkil etmagan tadbirkorlarning kreditlari bo'yicha Kreditlarni monitoring qilish va dastlabki undirish departamenti, Xatarlarni boshqarish departamenti va Garov xizmati tomonidan Kreditlarni monitoring qilish va dastlabki undirish departamentining xizmat xati asosida Bankning mintaqaviy bo'linmalariga belgilangan kreditlash limiti doirasida.

Bankning hududiy bo'linmasi 15 kundan kechiktirmay Qarz oluvchi va/yoki Garovga qo'yuvchining Bank tomonidan qabul qilingan qaror to'g'risidagi murojaatiga ijobiy yoki rad etilganligi to'g'risidagi asosalantirilgan javob yuboradi.

- Kreditlarni monitoring qilish va dastlabki undirish departamenti, Xatarlarni boshqarish departamenti va Garov xizmati - yuridik shaxslarga va yuridik shaxs tashkil etmagan tadbirkorlarga Bankning hududiy bo'linmalari uchun belgilangan limitdan ortiq berilgan kreditlar va Loyihalarni moliyalash markazidan olingan kreditlar uchun Bosh bank kredit qo'mitalari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Garovga qo'yilgan mol-mulklarni bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish masalasini ko'rib chiqish va tegishli qarorni qabul qilish bo'yicha bankning vakolatli organi to'g'risida hamda mazkur vakolatli organning ijobiy yoki rad etilganligi to'g'risidagi asosalantirilgan qarori haqidagi ma'lumotni 15 kundan kechiktirmay Qarz oluvchi va/yoki Garovga qo'yuvchining murojaatiga javob yuboradi.

- Jismoniy shaxslarning tegishli kreditlari bo'yicha ta'minotlar - Chakana biznesni operatsion qo'llab-quvvatlash departamenti tomonidan garovdan chiqariladi.

Shuningdek, qarz oluvchi yoki garovga qo'yuvchining garovga qo'yilgan mol-mulklarni bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish bo'yicha arizasi bank devonhonasiga kelib tushgan sanadan boshlab ro'yxatga olinadi.

VIII. NAZORAT VA HISOBOT

8.1. Bankning mas'ul bo'linmalari kredit garov ta'minotining qabul qilinishini, IABS va Garov reestrda mavjudligini nazorat qilishni, garov kredit ta'minotining yetarliligini monitoring va tahlil qilishni ta'minlaydi.

8.2 Bankning kredit ta'minoti bilan shug'ullanuvchi barcha kreditlovchi tarikibiy bo'linmalari boshqaruv hisobotlarini o'z vaqtida va sifatli tayyorlash va Bank rahbariyatiga taqdim etish uchun javobgardir.

8.3 Hisobotlar, shu jumladan, tezkor (joriy vaqtdagi vaziyat bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilish uchun), kunlik, oylik (hisobot sanalari uchun), choraklik, yarim yillik (auditorlar, reyting agentliklari uchun), yillik (aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Bankning yillik hisoboti uchun) hisobotlarni o'z ichiga oladi.

8.4 Mas'ul bo'linmalar Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida bo'linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq kredit ta'minotni qabul qilish, monitoring qilish va bo'shatish uchun javobgardir.

IX. XULOSA

9.1 Ushbu Tartib Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar amal qiladi.

9.2 Ushbu Tartibga belgilangan tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

9.3 Ushbu Tartib Bankning qarorlari va harakatlari Bank kreditlari bo'yicha kredit ta'minotning holati va yetarliligiga ta'sir qiladigan Bankning mas'ul tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajarilishi shart.

9.4 Garov xizmati ushbu Tartibni o'z vaqtida yangilash uchun mas'ul bo'linma hisoblanadi.